



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dिल्фуза Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbasovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antirfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startup ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	



Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	
Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	



HUQUQIY TA'LIM VA HUQUQIY TARBIYA INTEGRATSIYASI ORQALI YOSHLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI Olish

Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li

Alfraganus University Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://orcid.org/0009-0003-1667-8676>

Ilmiy rahbar: Pulatov Sherdor Ne'matjonovich

Alfraganus University Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, f.f.d. (DSc), dotsent

<https://orcid.org/0009-0002-1665-0545>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning o'zaro integratsiyalashgan mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida huquqiy ta'limning faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, huquqiy tarbiya bilan uyg'unlashgandagina samarali natija berishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi yoshlar orasida huquqbuzarlik xavfini kamaytirish, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish hamda qonunlarga hurmatni mustahkamlashning muhim omili ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqbuzarlik, yoshlar, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, profilaktika, fuqarolik mas'uliyati, integratsiya.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the integrated mechanisms of legal education and legal upbringing in the prevention of delinquency among youth. The study systematically examined the factors influencing the formation of legal consciousness, legal culture, and legal behavior. Drawing on international scholarly literature and modern theoretical approaches, the study substantiates that legal education yields effective results only when harmonized with legal upbringing, rather than being limited to the mere transmission of knowledge. The research findings demonstrate that the integration of legal education and legal upbringing is a crucial factor in reducing the risk of delinquency among youth, fostering civic responsibility, and strengthening respect for the law.

Key words: legal education, legal upbringing, delinquency, youth, legal consciousness, legal culture, prevention, civic responsibility, integration.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ комплексных механизмов правового образования и правового воспитания в системе профилактики правонарушений среди молодежи. В ходе исследования были систематически проанализированы факторы, влияющие на формирование правосознания, правовой культуры и правомерного поведения. Опираясь на международные научные источники и современные теоретические подходы, авторы обосновывают, что правовое образование приносит эффективные результаты лишь при условии его гармоничного сочетания с правовым воспитанием, а не сводится к простой передаче знаний. Результаты исследования свидетельствуют о том, что интеграция правового образования и правового воспитания является ключевым фактором снижения риска правонарушений в молодежной среде, формирования гражданской ответственности и укрепления уважения к закону.

Ключевые слова: правовое образование, правовое воспитание, правонарушения, молодежь, правосознание, правовая культура, профилактика, гражданская ответственность, интеграция.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish dunyoning ko'plab davlatlari uchun dolzarb ijtimoiy-huquqiy masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi, axborot almashinuvi tezligining ortishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlarini va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, ushbu omillar yoshlarning bilim olish va o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, noqonuniy axborotlar, kiber-



jinoyatchilik, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontent, ekstremistik g'oyalar hamda turli salbiy ijtimoiy ta'sirlar yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada ayrim yoshlar huquqiy me'yorlarga rioya qilish, qonun ustuvorligini anglash va fuqarolik mas'uliyatini his etish borasida muammolarga duch kelmoqda. Shu bois yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki ta'lim tizimi, oila va jamiyatning barcha institutlari oldida turgan muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda ham yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim asosan nazariy bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, huquqiy tarbiyaning amaliy va qadriyatga asoslangan jihatlari yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada yoshlar qonun normalarini bilgan holda ham ularni kundalik hayotda qo'llash, huquqiy mas'uliyatni his etish va qonuniy xulq-atvorni namoyon etish borasida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani yagona pedagogik hamda ijtimoiy tizim sifatida tashkil etish, ularning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy va samarali yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyalashgan mexanizmlarini yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish nuqtayi nazaridan kompleks nazariy tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa, huquqiy bilim, huquqiy qadriyat, huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni o'zaro bog'liqligini yagona konseptual model asosida yoritish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining mazmuni, tarkibiy elementlari hamda ularning yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi – huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi nazariy asoslari va samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning ilmiy-nazariy mazmuni hamda o'zaro bog'liqligini tahlil qilish;
- yoshlar orasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni nazariy jihatdan guruhlash va baholash;
- huquqiy ta'lim hamda huquqiy tarbiya integratsiyasining asosiy yo'nalishlari va pedagogik mexanizmlarini aniqlash;
- huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvorni shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklarini asoslash;
- huquqbuzarliklarning profilaktikasiga xizmat qiluvchi konseptual integratsion modelni ishlab chiqish hamda uni nazariy jihatdan asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2022–2026-yillarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda yoshlar huquqbuzarligining oldini olish masalasi huquqiy ijtimoiylashuv, ta'lim muassasasiga mansublik, qonunga itoatkorlik, pedagogik adolat va huquqni qo'llash amaliyotiga ishonch kabi yo'nalishlarda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat qonun normalarini tushuntirish yoki jazo muqarrarlari haqidagi ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanmasligi, balki yoshlarning huquqiy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari, o'zini nazorat qilish qobiliyati va ijtimoiy institutlarga bo'lgan ishonchini rivojlantirishi lozimligi asoslangan. Ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, maktabga bog'lanish darajasi, qonunlarga rioya qilishni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning adolatli faoliyati huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatiladi.

Amy Nivette va hammualliflarning "Fair Teachers, Fair Police? Assessing the Pathways between Perceptions of Teacher and Police Authority in Childhood and Adolescence" nomli maqolasida¹ o'qituvchilarning adolatli munosabati yoshlarning huquqiy ijtimoiylashuviga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Tadqiqot Syurix shahridagi yoshlarning uzoq muddatli kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, 232 juft o'quvchining 11 yoshdagi o'qituvchi bilan munosabatlari, 13 yoshdagi axloqiy qarashlari va o'zini nazorat qilish qobiliyati hamda 15 yoshdagi

1 Nivette A. et al. Fair teachers, fair police? Assessing the pathways between perceptions of teacher and police authority in childhood and adolescence. – 2021. DOI: 10.1007/s10964-021-01537-6.



politsiya legitimligiga munosabati qiyoslangan. Natijalar o'qituvchilar tomonidan adolatli va qo'llab-quvvatlovchi munosabatni his qilgan bolalarda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va o'zini nazorat qilish qobiliyati yaxshiroq shakllanishini ko'rsatgan. O'zini nazorat qilishning rivojlanishi esa keyinchalik huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ijobiy munosabat bilan bog'langan. Mazkur izlanish huquqiy tarbiya faqat huquq fani darslarida emas, balki o'qituvchining kundalik xatti-harakati, o'quvchiga adolatli munosabati va maktabdagi qoidalarning izchil qo'llanishi orqali ham amalga oshirilishini asoslaydi.

Chau-kiu Cheung va Cindy Xinshan Jia tomonidan e'lon qilingan "Law Awareness and Abidance and Radicalism Prevention Among Hong Kong Youth" maqolasida² Yoshlar orasida qonundan xabardorlik, qonunga itoatkorlik va radikal xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabat tahlil qilingan. Tadqiqot Gonkongdagi 883 nafar yosh ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, unda qonunlarning ijro etilishi haqida xabardorlik, jamiyatning qonunga rioya qilishni qo'llab-quvvatlashi, shaxsiy qonunga itoatkorlik va radikalizm darajasi o'lgangan. Natijalarga ko'ra, huquqni qo'llash amaliyoti to'g'risidagi xabardorlikning ortishi radikalizm darajasi bilan kuchli teskari bog'liqlikni namoyon qilgan. Shuningdek, qonunga rioya qilishni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy me'yorlarni anglash va qonunlarga shaxsiy rozilik bildirish ham radikal xatti-harakatlarning kamayishi bilan bog'langan. Tadqiqotchilar huquqiy ta'lim jarayonida yoshlarni faqat jazo choralari bilan tanishtirish emas, balki qonunlarning ijtimoiy ahamiyati, adolatligi va jamiyat barqarorligidagi o'rnini muhokama qilish zarurligini ta'kidlaydi.

M. Márta va E. Karolina tomonidan chop etilgan "Factors Influencing School Bonding Among Juvenile Offenders – The Experience of a Systematic Review" nomli maqolasida³ Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning ta'lim muassasasiga bog'lanishi va huquqbuzarlikdan voz kechishi o'rtasidagi munosabat o'rganilgan. Mualliflar mavjud tadqiqotlarni tizimli umumlashtirib, maktabga mansublik hissi, o'quv jarayonidagi ishtirok, o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlash, sinfdan tashqari faoliyat va mentorlik yoshlarning jamiyatga qayta integratsiyalashuviga yordam berishini aniqlagan. Aksincha, maktabdan begonalashish, o'qishni tashlab ketish, oiladagi muammolar, salbiy tengdoshlar ta'siri va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi takroriy huquqbuzarlik xavfini oshirishi mumkin. Tadqiqotning mavzu uchun muhim jihati shundaki, huquqiy tarbiya alohida profilaktik tadbir emas, balki yoshning maktab jamoasiga mansubligi, o'qituvchi bilan ijobiy munosabati va foydali ijtimoiy faoliyatlarda ishtiroki bilan uyg'un holda tashkil etilishi kerak.

Thiago R. va J. Jonathan tomonidan e'lon qilingan "Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization" maqolasida⁴ Huquqni qo'llash amaliyotining adolatli yoki zo'ravon shakllari o'smirlarning qonun legitimligi haqidagi qarashlari va huquqbuzarlikka moyilligiga qanday ta'sir qilishi tahlil etilgan. Tadqiqot San-Paulu shahridagi 11–14 yoshli 800 nafar o'smir ishtirok etgan to'rt bosqichli longitudinal kuzatuv ma'lumotlariga tayangan. Natijalar politsiya tomonidan zo'ravon yoki adolatsiz munosabatga guvoh bo'lish yoshlarning qonun va huquqiy institutlar legitimligiga bo'lgan ishonchini susaytirishini ko'rsatgan. Bunday ishonchsizlik yoshlarning ichki axloqiy cheklovlarini zaiflashtirib, ayrim vaziyatlarda huquqbuzar xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Ushbu xulosa yoshlar huquqbuzarligining oldini olishda "qonunni bilish" bilan bir qatorda "qonunni adolatli deb qabul qilish" ham muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun huquqiy ta'limda yoshlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ochiq muloqotlar tashkil etish, protsessual adolat tamoyillarini yoritish hamda huquqiy institutlarga asosli ishonchni shakllantirish huquqiy tarbiyaning ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda empirik kuzatuv, eksperiment yoki so'rovnoma usullaridan foydalanilmadi. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan nazariy tahlil usullariga tayandi. Tadqiqot jarayonida 2022–2026-yillarda nashr etilgan xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda huquqiy ta'lim va huquqiy madaniyatga oid ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqotda tizimli tahlil usuli orqali huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning tarkibiy elementlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlanib, qiyosiy tahlil yordamida turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan yondashuvlar o'zaro solishtirildi. Kontent tahlili usuli asosida ilmiy manbalardagi asosiy g'oyalar, konsepsiyalar va ilmiy qarashlar umumlashtirildi, induktiv va deduktiv yondashuvlar orqali esa alohida ilmiy natijalardan umumiy xulosalar hamda nazariy konsepsiyalar shakllantirildi.

2 Cheung C. K. J. Law awareness and abidance and radicalism prevention among Hong Kong youth. – 2024. DOI: 10.1007/s11482-024-10331-y.

3 Miklósi M., Kovács K. E. Factors influencing school bonding among juvenile offenders–The experience of a systematic review // International Journal of Educational Research Open. – 2025. – T. 8. – C. 100441. DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100441.

4 Oliveira T. R., Jackson J. Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization: Oliveira and Jackson // Journal of Developmental and Life-Course Criminology. – 2025. – C. 1-36. DOI: 10.1007/s40865-025-00271-y.



TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya zamonaviy ta'lim tizimining bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro uzviy bog'liq tarkibiy qismlari hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy ilmiy tadqiqotlarda huquqbuzarliklarning oldini olish faqat qonunchilik normalarini o'rgatish yoki huquqiy bilimlarni oshirish orqali emas, balki shaxsning huquqiy qadriyatlarini, fuqarolik mas'uliyati va qonunlarga hurmatini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkinligi tobora ko'proq asoslanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani alohida jarayon sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan pedagogik model sifatida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur model bilim, qadriyat va amaliy xulq-atvor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali yoshlarning huquqiy ongini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasining barqaror mexanizmini shakllantiradi (1-rasm).



1-rasm: Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning nazariy integratsion modeli.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, integratsion modelning birinchi bosqichi huquqiy bilimlarni egallashdan boshlanadi. Ushbu bosqichda yoshlar Konstitutsiya, amaldagi qonunchilik, shaxsning huquq va majburiyatlari, inson huquqlari hamda fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillari haqida ilmiy asoslangan bilimlarga ega bo'ladi. Biroq zamonaviy pedagogik va huquqiy konsepsiyalarga ko'ra, faqat nazariy bilimlarning mavjudligi qonuniy xulq-atvorni kafolatlamaydi. Shu sababli ikkinchi bosqichda huquqiy tarbiya vositasida olingan bilimlar shaxsning ichki e'tiqodi, axloqiy qarashlari va huquqiy qadriyatlariga singdiriladi.

Integratsion modelning yakuniy bosqichi huquqiy bilim va huquqiy qadriyatlarining amaliy xulq-atvorga transformatsiyalanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda yoshlar kundalik hayotda qonunlarga rioya qilish, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal etish, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish hamda ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etish kabi kompetensiyalarni egallaydi. Nazariy jihatdan qaralganda, huquqiy ta'lim → huquqiy ong → huquqiy madaniyat → huquqiy xulq-atvor ketma-ketligi huquqbuzarliklarning oldini olishning eng maqbul konseptual modelini tashkil etadi.

Quyidagi 1-jadvalda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda guruhlariga ajratilib, ularning mazmuni, yoshlar xulq-atvoriga ko'rsatadigan ta'siri hamda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya orqali bartaraf etish yo'llari kompleks tahlil qilingan. Tahlil natijalari huquqbuzarliklar birgina huquqiy bilim yetishmasligi natijasida emas, balki individual, oilaviy, ta'limiy, ijtimoiy, psixologik va institutsional



omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi. Shu sababli yoshlar huquqbuzarligining oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan emas, balki ta'lim muassasalari, oila, mahalla va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari hamkorligiga asoslangan integratsiyalashgan profilaktika tizimini talab etadi. Mazkur yondashuv huquqiy ta'limni nazariy bilim berish bilan cheklab qolmasdan, uni huquqiy tarbiya, fuqarolik qadriyatlari va qonuniy xulq-atvorni shakllantirish bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi (1-jadval).

1-jadval: Yoshlar orasida huquqbuzarliklarga ta'sir qiluvchi omillarning nazariy tahlili

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Yoshlarga ta'siri	Huquqiy ta'lim va tarbiya orqali bartaraf etish yo'llari
I. Individual omillar	Huquqiy bilimning yetishmasligi, huquqiy ongning sustligi, mas'uliyat hissining pastligi, impulsiv qarorlar qabul qilish, o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining rivojlanmaganligi	Qonunlarni yetarli bilmaslik, huquqiy me'yorlarga befarqlik, noqonuniy xatti-harakatlarga moyillik, xavfli qarorlarni tez qabul qilish	Huquqiy savodxonlikni oshirish, interfaol huquq darslari, amaliy huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish
II. Oilaviy omillar	Oilada huquqiy tarbiyaning sustligi, ota-onalarning huquqiy savodxonligi pastligi, oilaviy nizolar, nazoratning yetishmasligi, salbiy oilaviy muhit	Huquqiy qadriyatlarning to'liq shakllanmasligi, salbiy xulq-atvorning rivojlanishi, tajovuzkorlik va ijtimoiy moslashuv muammolari	Ota-onalar uchun huquqiy-ma'rifiy treninglar, oila va ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish, oilaviy huquqiy maslahatlar va profilaktik tadbirlarni tashkil etish
III. Ta'lim muassasalari omillari	Nazariy ta'limning ustunligi, amaliy mashg'ulotlarning kamligi, huquqiy tarbiyaning tizimli tashkil etilmaganligi, pedagogik hamkorlikning sustligi	Huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olmaslik, fuqarolik mas'uliyatining sust rivojlanishi, qonunlarga nisbatan loqayd munosabat	Case-study, debat, rolli o'yinlar, virtual sud jarayonlari, huquqiy klublar, mentorlik va profilaktik loyihalarni joriy etish
IV. Ijtimoiy va raqamli muhit omillari	Salbiy tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy tarmoqlardagi noqonuniy kontent, kiberjinoyatchilik, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi axborotlar, destruktiv g'oyalar	Huquqbuzarlikka qiziqishning ortishi, radikal qarashlarning shakllanishi, virtual huquqbuzarliklar va kiberxavflarning ko'payishi	Raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish, internet xavfsizligi bo'yicha treninglar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikdagi profilaktik dasturlar
V. Psixologik omillar	Stress, emotsional beqarorlik, past o'zini baholash, agressivlik, konfliktlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarining yetishmasligi	Mojarolarga moyillik, zo'ravonlik, noqonuniy xatti-harakatlar orqali muammolarni hal qilishga urinish	Psixologik xizmatlarni rivojlantirish, konfliktologiya va mediatsiya mashg'ulotlari, huquqiy-psixologik maslahatlar hamda ijtimoiy moslashuv dasturlarini amalga oshirish

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, individual va psixologik omillar yoshlarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim o'rin tutsa, oilaviy hamda ta'lim muassasalari bilan bog'liq omillar ushbu ongning barqaror huquqiy madaniyatga aylanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi yoshlar duch kelayotgan huquqiy xavflarni murakkablashtirayotganligi sababli media va raqamli huquqiy savodxonlikni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda.

Institutsional omillar esa barcha subyektlar o'rtasidagi hamkorlik darajasi huquqbuzarliklar profilaktikasi-ning samaradorligini belgilashini ko'rsatadi. Demak, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyasiga asoslangan kompleks yondashuv yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy madaniyatini rivojlantirish, fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishning eng samarali pedagogik va ijtimoiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning samaradorligi ularning qanchalik uzviy va tizimli integratsiyalashganligiga bevosita bog'liq. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish faqat huquq fanlarini o'qitish bilan emas, balki ta'lim jarayonining barcha tarkibiy


qismlarini yagona maqsad sari yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, integratsiyalashgan yondashuv huquqiy bilimlarni kundalik hayotiy tajriba, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy amaliyot bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi (2-rasm).

HUQUQIY TA'LIM VA HUQUQIY TARBIYA INTEGRATSIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI

1

1-YO'NALISH. O'QUV DASTURLARINI INTEGRATSIYALASH

Huquqiy bilimlarni barcha fanlarga bosqichma-bosqich integratsiya qilish yoshlarning huquqiy tafakkurini rivojlantiradi.



2

2-YO'NALISH. INTERFAOL PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR


Case-study, debat, sud jarayonlari modeli, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish usullari huquqiy tafakkurni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.



3

3-YO'NALISH. OILAVIY HAMKORLIK

Huquqiy tarbiya faqat maktab yoki universitet bilan cheklanmasligi kerak. Oila ham mazkur jarayonning muhim ishtirokchisiga aylanishi lozim.



4

4-YO'NALISH. RAQAMLI HUQUQIY TA'LIM

Elektron platformalar, mobil ilovalar, virtual sud jarayonlari va sun'iy intellekt asosidagi huquqiy treninglar yoshlarning qiziqishini sezilarli oshirishi mumkin.



5

5-YO'NALISH. PROFILAKTIK FAOLIYAT

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari va mahallalarning hamkorligi huquqbuzarliklarning erta profilaktikasini ta'minlaydi.



HUQUQNI MUHOFAZA
QILUVCHI ORGANLAR



TA'LIM
MUASSASALARI



MAHALLALAR

2-rasm: Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining asosiy yo'nalishlari.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasining samaradorligi, avvalo, o'quv dasturlarining mazmunan boyitilishi va huquqiy kompetensiyalarni barcha fanlar bilan bog'liq holda rivojlantirishga asoslanadi. Shu bilan birga, case-study, debatlar, rolli o'yinlar, virtual sud jarayonlari kabi interfaol pedagogik texnologiyalar yoshlarning huquqiy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Oilaning tarbiyaviy roli ham ushbu jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ota-onalar va ta'lim muassasalari hamkorligi huquqiy qadriyatlarining barqaror shakllanishiga zamin yaratadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlaniishi esa elektron ta'lim platformalari, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari orqali huquqiy ta'limni yanada ommalashtirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, ta'lim muassasalari, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligiga asoslangan profilaktik faoliyat yoshlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashning eng muhim integratsion yo'nalishlaridan biri ekanligi aniqlanadi.

Quyidagi 2-jadvalda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsion modelining samaradorligi nazariy jihatdan sakkizta o'zaro bog'liq yo'nalish bo'yicha tizimlashtirilgan. Ushbu yo'nalishlar huquqiy bilimlarni egalashdan boshlab, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, qonuniy xulq-atvorni rivojlantirish, ta'lim sifati va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, profilaktik faoliyatni takomillashtirish, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish hamda barcha tarkibiy qismlarni yagona integratsiyalashgan tizimga birlashtirishgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni qamrab oladi. Mazkur yondashuv huquqbuzarliklarning oldini olishni faqat huquqiy bilim berish bilan emas, balki yosh shaxsining har tomonlama huquqiy rivojlanishini ta'minlaydigan kompleks pedagogik va ijtimoiy mexanizm sifatida baholash imkonini beradi (2-jadval).



2-jadval: Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsion modelining samaradorligi bo'yicha nazariy tahlil

Samaradorlik yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Integratsiya natijasida kutilayotgan o'zgarishlar	Huquqbuzarliklarning oldini olishdagi ahamiyati
I. Bilim (kognitiv) samaradorligi	Huquqiy savodxonlik, Konstitutsiya va qonunchilikni bilish, huquq va majburiyatlarni anglash	Yoshlarning huquqiy bilim darajasi oshadi, qonunlarning mazmuni va ahamiyatini ongli ravishda tushunish shakllanadi	Huquqiy me'yorlarni bilmaslik sababli yuzaga keladigan huquqbuzarliklar kamayadi, qonunlarga ongli rioya qilish kuchayadi
II. Qadriyat va psixologik samaradorlik	Huquqiy ong, fuqarolik mas'uliyati, adolat va qonun ustuvorligiga ishonch, huquqiy qadriyatlar	Qonunlarga hurmat, mas'uliyat hissi va ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiqlik rivojlanadi, noqonuniy xatti-harakatlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi	Huquqbuzarlikka ichki motivatsiya pasayadi, huquqiy xulq-atvorning barqarorligi ta'minlanadi
III. Xulq-atvor (behaviorial) samaradorligi	Qonuniy xulq-atvor, o'zini nazorat qilish, nizolarni huquqiy yo'l bilan hal etish, intizom	Huquqiy bilim va qadriyatlar kundalik amaliyotda namoyon bo'ladi, yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati kuchayadi	Takroriy huquqbuzarliklar kamayadi, huquqiy madaniyatning amaliy ko'rinishi shakllanadi
IV. Ta'limiysamaradorlik	Interfaol metodlardan foydalanish, huquqiy kompetensiyalar, amaliy mashg'ulotlar sifati	Huquqiy ta'lim nazariy bilimdan amaliy ko'nikmaga o'tadi, ta'lim sifati va o'quvchilarning faolligi ortadi	Yoshlarda qonunlarni qo'llash va huquqiy vaziyatlarni to'g'ri baholash ko'nikmalari rivojlanadi
V. Ijtimoiy samaradorlik	Maktab-oila-mahalla hamkorligi, fuqarolik faolligi, jamoatchilik ishtiroki	Ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi, yoshlarning jamiyat hayotidagi ishtiroki ortadi	Profilaktika tizimining uzluksizligi ta'minlanadi, huquqbuzarliklarning ijtimoiy omillari kamayadi
VI. Profilaktik samaradorlik	Erta profilaktika, xavf guruhidagi yoshlarni aniqlash, monitoring tizimi	Huquqbuzarlik xavfi yuqori bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash imkoniyati kengayadi, profilaktik choralar o'z vaqtida amalga oshiriladi	Birlamchi va takroriy huquqbuzarliklarning oldi olinadi, yoshlarning huquqiy himoyalanganligi kuchayadi

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, bilim (kognitiv) samaradorligi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish va qonunchilikni ongli ravishda tushunishiga xizmat qilsa, qadriyat va psixologik samaradorlik ularda qonunga hurmat, fuqarolik mas'uliyati hamda adolat tamoyillariga sodiqlikni rivojlantiradi. Xulq-atvor samaradorligi huquqiy bilim va qadriyatlarining amaliy faoliyatda namoyon bo'lishini ta'minlab, ta'limiy samaradorlik interfaol metodlar orqali huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy samaradorlik ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlash orqali profilaktik faoliyatning uzluksizligini ta'minlasa, profilaktik samaradorlik xavf guruhidagi yoshlarni erda aniqlash va ular bilan tizimli ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatdiki, huquqbuzarliklarning oldini olishda faqat huquqiy bilimlarni oshirish yetarli emas. Bilimning huquqiy qadriyatlarga, huquqiy qadriyatlarining esa kundalik xulq-atvorga aylanishi integratsiyalashgan pedagogik yondashuvni talab qiladi. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning uyg'unligi yoshlarning qonunlarga ongli munosabatini shakllantirib, huquqiy mas'uliyat va fuqarolik faolligini kuchaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar hamda ta'lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligi huquqiy tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, integratsion yondashuv huquqbuzarliklarning profilaktikasida strategik mexanizm sifatida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning integratsiyasi yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishning eng samarali nazariy mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Integratsiya huquqiy bilim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy xulq-atvor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda kompleks yondashuvni shakllantiradi.

Tadqiqot yakunida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilganda profilaktik samaradorlik oshadi.
2. Huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqbuzarliklarni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi.
3. Interfaol pedagogik metodlar nazariy huquqiy bilimlarni amaliy kompetensiyalarga aylantirish imkonini beradi.
4. Oila, ta'lim muassasasi, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligi huquqiy tarbiyaning barqarorligini ta'minlaydi.
5. Raqamli huquqiy ta'lim vositalari yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.
6. Integratsiyalashgan huquqiy ta'lim modeli yoshlarning qonunlarga hurmatini kuchaytirish, fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ilmiy asoslangan konseptual yechimi sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nivette A. et al. Fair Teachers, Fair Police? Assessing the Pathways Between Perceptions of Teacher and Police Authority in Childhood and Adolescence. – 2021. DOI: 10.1007/s10964-021-01537-6.
2. Cheung C. K., Jia C. X. Law Awareness and Abidance and Radicalism Prevention Among Hong Kong Youth. – 2024. DOI: 10.1007/s11482-024-10331-y.
3. Miklósi M., Kovács K. E. Factors Influencing School Bonding Among Juvenile Offenders – The Experience of a Systematic Review // International Journal of Educational Research Open. – 2025. – T. 8. – B. 100441. DOI: 10.1016/j.ijedro.2025.100441.
4. Oliveira T. R., Jackson J. Learning About the Binding Nature of the Law: Police Violence, Criminal Offending and Adolescent Legal Socialization // Journal of Developmental and Life-Course Criminology. – 2025. – B. 1–36. DOI: 10.1007/s40865-025-00271-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.